

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Davlat yong‘in nazoratini tashkil etish bosh boshqarmasi

asosiy vazifalari:

- a) davlat yong‘in nazorati va yong‘inlar profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha DYoN organlari tizimiga rahbarlik qilish;
- b) davlat yong‘in nazorati va yong‘inlar profilaktikasi amalga oshirilishini tashkil qilish;
- v) tergovga qadar tekshiruv va ma'muriy amaliyotni nazorat qilish, shuningdek, yong‘inlar va ularning oqibatlari bo‘yicha statistikani yuritish;
- g) yong‘in xavfsizligi talablarini normativ jihatdan tartibga solish;
- d) qurilish ob'ektlarining yong‘in xavfsizligi ta'minlash doirasida loyiha hujjatlarini nazorat qilish;
- e) shaharsozlik amaliyotida yong‘in xavfsizligini nazorat qilish;
- o) aholiga yuz berishi mumkin bo‘lgan yong‘inlar va oqibatlarining oldini olish bo‘yicha kompleks yordam ko‘rsatish, aholi bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash va kengaytirish;

funksiyalar:

- a) o‘z vakotlati doirasida davlat yong‘in nazoratini tashkil etish, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yong‘inlar va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarni joriy va istiqbolda rejalashtirishni amalga oshiradi;
tashkiliy-metodik boshqaruvni amalga oshiradi, DYoN organlari faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha ishlar holatini o‘rganadi va tahlil qiladi;
DYoN hududiy organlari mansabdor shaxslari bilan mavzuga doir yig‘ilish va seminarlar tashkil qiladi hamda o‘tkazadi;
- b) respublika davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolar tomonidan yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan davlat yong‘in nazoratini tashkil qiladi va amalga oshiradi;
vazirlik va idoralarning yong‘in xavfsizligini ta'minlash masalalarini ko‘rib chiqishga doir hay'at va yig‘ilishlarda ishtirok etadi;
respublika davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlariga doimiy ravishda yong‘in xavfsizligi talablarini buzuvchi yoki DYoN organlarining yozma ko‘rsatmasini bajarmayotgan shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortish haqida taqdimnomalar kiritadi;
- v) sodir bo‘lgan yong‘inlar yuzasidan DYoN organlari mansabdor shaxslari tomonidan tergovga qadar tekshiruv to‘g‘ri o‘tkazilganligi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
DYoN organlari mansabdor shaxslari tomonidan yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy jarimalarning to‘g‘ri qo‘llanilganligi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;
- respublika bo‘yicha yong‘inlar va ularning oqibatlari to‘g‘risidagi davlat statistik hisobotini yuritadi;

avtomatlashtirilgan axborot tizimining (“Yong‘inlar hisobi” AAT) kuzatib borilishini (texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi) amalga oshiradi va ma'lumotlar bazasini shakllantiradi;

foydalanuvchilar va tegishli tashkilotlar so‘rovnomasiga asosan ularni “Yong‘inlar hisobi” AATdan statistik ma'lumot bilan ta'minlaydi;

g) mustaqil ravishda yoki davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan birgalikda yong‘in xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishni tashkil etadi; yong‘in xavfsizligi talablarini o‘z ichiga olgan texnik reglament, standart va boshqa normativ hujjatlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

d) shaharlar, tumanlar va aholi punktlarining ishlab chiqilayotgan bosh rejalariga qurilish sohasidagi yong‘in xavfsizligi talablariga asosan takliflar kiritadi; qurilish ob'ektlarining loyiha hujjatlaridagi yong‘inga qarshi tadbirlarni amaldagi shaharsozlik normalari va qoidalariga mosligini ko‘rib chiqadi va ular bo‘yicha mutaxassis xulosalarini beradi;

loyihalarda va qurilishlarda qo‘llanilayotgan zamonaviy yong‘inga qarshi himoya tizimlari bo‘yicha qabul qilinayotgan xorijiy va mahalliy tajribalarni o‘rganadi hamda ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar kiritadi;

e) qurilish uchun maydonlar (trassalar) tanlash (ajratish) va qurilishi tugallangan ob'ektlarni, shu jumladan, ob'ektlarga o‘rnatilgan yong‘inga qarshi texnik himoya vositalarini foydalanishga qabul qilish komissiyalari tarkibida ishtirok etadi, shuningdek, qurilish materiallariga va konstruksiyalariga olovdan himoya qilish vositalari bilan ishlov berish yo‘li orqali yong‘inga bardoshlilik darajasini oshirish bo‘yicha bajarilgan ishlarning sifatini komissiya tarkibida tekshiradi;

o) o‘rnatilgan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning yong‘in nazorati va profilaktikasini amalga oshirish, yong‘in holatlari va ma'muriy ish yuritish bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish, shuningdek, loyihalashtirish va qurilish jarayonida yong‘in xavfsizligini ta'minlashga oid murojaatlarini ko‘rib chiqadi; axborot-kommunikasiya texnologiyalari orqali shaharsozlik faoliyatida davlat xizmatlarini o‘z vaqtida va sifatli ko‘rsatilishini ta'minlaydi; jismoniy va yuridik shaxslarga yong‘in xavfsizligini ta'minlash, shu jumladan, ob'ekt va inshootlarni loyihalash hamda qurishda yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etilishi masalalarida maslahatlar beradi.

